

**Javohirxon NASRULLAYEV,**

*Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: javohirkhonn97@gmail.com*

*SamDCHTI, f.f.d. (DSc), professor; Nasrullahova Nafisa Zafarovna taqrizi asosida*

## **LINGVISTIK TOLERANTLIK: SEMANTIK VA IJTIMOIY-MADANIY REALLASHUV ASPEKTLARI**

Annotatsiya

Mazkur maqola zamonaviy jamiyatdagi “tolerantlik” konseptining mohiyati va o‘zgaruvchan tabiatiga bag‘ishlangan. Maqola ushbu mavzuning tadqiqot sohasidagi ahamiyatini asoslab beradi va “tolerantlik” atamasasi semantikasining ko‘p qirralilagini va uning o‘zgaruvchanligini tushuntiradi. Ushbu fenomenni o‘rganishga turli yondashuvlar, jumladan, “tolerantlik” konsepti turli xil rakurs asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatda “tolerantlik” tushunchasining kontekstual qo‘llanilishi va evolyutsiyasi o‘rganilib, hozirgi madaniy va ijtimoiy paradigmada ushbu kontseptsiyani chuqurroq tushunish imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** tolerantlik, jamiyat, semantika, variativlik, yondashuvlar, tadqiqot, sabrlilik, kontekst, evolyutsiya, madaniyat.

## **ЯЗЫКОВАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ: АСПЕКТЫ СЕМАНТИКИ И СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ**

Аннотация

Исследование затрагивает сущность и изменяющуюся природу “толерантности” в современном обществе. Оно обосновывает значимость этой темы в сфере исследований и разъясняет многогранность семантики термина “толерантность” и его вариативность. Анализируются различные подходы к изучению этого феномена, включая рассмотрение концепции “толерантности”. Дополнительно, исследуется контекстуальное применение и эволюция восприятия “толерантности” в современном обществе, обеспечивая более глубокое понимание этого понятия в современной культурной и социальной парадигме.

**Ключевые слова:** толерантность, общество, семантика, вариативность, подходы, исследование, терпимость, контекст, эволюция, культура, социум.

## **LANGUAGE TOLERANCE: SEMANTIC ASPECTS AND SOCIOCULTURAL IMPLEMENTATION**

Annotation

The study delves into the essence and evolving nature of “tolerance” in contemporary society. It establishes the significance of this subject in the realm of research and elucidates the multifaceted semantics of the term “tolerance” and its variability. Various approaches to investigating this phenomenon are scrutinized, encompassing an examination of the concept of “tolerance”. Furthermore, the contextual application and evolution of the perception of “tolerance” in present-day society are explored, providing a comprehensive understanding of this concept within the contemporary cultural and social paradigm.

**Key words:** tolerance, society, semantics, variability, approaches, research, context, evolution, culture.

**Kirish.** Lingvistik tolerantlik jamiyatda mavjud bo‘lgan turli tillar va muloqot usullariga hurmat ifodasini namoyon etadi. Ushbu turdagি tolerantlik, tili yoki aloqa usuli o‘zgacha bo‘lgan (farq qiladigan) shaxslar yoki guruhlar bilan o‘zarо aloqada ishlatalidigan turli xil verbal va noverbal aloqa shakllarini o‘z ichiga oladi. Bu esa o‘z navbatida adresat (qabul qiluvchi)ning nafaqat ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (uning e’tiqodi, qadriyatlari va xatti-harakati), balki biologik xususiyatlari (jinsi, yoshi, millati va boshqalar) ham hisobga olinadi. Bundan tashqari, lingvistik tolerantlik aloqa jarayonida ijtimoiy o‘zarо ta’sirning ijobji va konstruktiv modellaridan foydalanishni nazarda tutadi. Lingvistik tolerantlik, insonlar orasidagi muloqotning barcha shakllarini qamrab olmasligiga qaramay (garchi lingvistik tolerantlik normalari, nisbatan aytganda, san’at kabi ko‘plab lingvistik bo‘lmagan aloqa shakllariga tatbiq etilishi mumkin), uning normalari va munosabatlari odamlar o‘rtasidagi aloqaning turli jihatlarga ta’sir qiladi.

Lotinchа “tolerantia” so‘zidan olingan “tolerantlik” atamasasi gumanitar va ijtimoiy fanlarda, shuningdek, ijtimoiy amaliyotda keng e’tirof etilgan va terminologiyada sezilarli o‘zgaruvchanlik bilan ajralib turadi. Huquqiy yondashuv nuqtai nazaridan “tolerantlik” tushunchasi huquq tamoyillariga asoslangan jamiyat qurilishning ajralmas talabi sifatida talqin etiladi. Psixologik yondashuv nuqtai nazaridan esa tolerantlik betaraflik va befarqlikni ifodalovchi, har doim shaxsiy qarashlariga rioya qiladigan hodisa sifatida, boshqa tomonidan esa maksimal darajada hamdardlik va xayrixohlikning namoyon bo‘lishi sifatida qabul qilinadi. Madaniyatshunoslikda tolerant dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo‘sadigan yoki aksinchcha, to‘sinqilik qiladigan madaniy jihatlarni aniqlashga alohida e’tibor beriladi. Bunga tolerantlikning shakllanishiga ta’sir qiluvchi, shuningdek, tolerantlik ongingin rivojlanishiga to‘sinqilik qilishi mumkin bo‘lgan madaniyatlarni o‘rganish kiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** V. Yujakova so‘zlovchi tomonidan salbiy yoki neytral qarashlarning o‘zarо ta’siri va tolerantlikning umumiy prinsipi natijasida ko‘rib chiqilgan lingvistik tolerantlik ta’rifini kiritadi. Unga ko‘ra ushbu tamoyil “o‘zga”ga ekvivalent shaxs sifatida munosabatda bo‘lishni belgilaydigan lingvistik va nutqiy xulq-atvor normalari to‘plamini o‘z ichiga oladi. Ushbu ta’rif boshqa milliy, diniy, ijtimoiy muhitga mansub shaxslar yoki guruhlar bilan ijobji munosabatda bo‘lishga, shuningdek, turli xil qarash, dunyoqarashlar, fikrlash va xulq-atvor uslublariga ega bo‘lgan faol ijtimoiy pozitsiyani va psixologik tayyorgarlikni ta’kidlaydi [11, 16].

Ushbu lingvistik tolerantlik konsepsiyasida Yujakova uni asosan so‘zlovchiga og‘zaki agressiya (tajovuz)ning namoyon bo‘lishidan qochishga imkon beradigan nutq vositasi deb biladi. Bu shuni anglatadiki, salbiy yoki neytral qarashlar lingvistik tolerantlikning ajralmas qismiga aylanadi. Yujakova o‘zining “Mafkuraviy yo‘naltirilgan ommaviy axborot nutqida tolerantlik” nomzodlik dissertatsiyasida lingvistik tolerantlikning namoyon bo‘lishi matn ob‘ektiga og‘zaki yoki yashirin salbiy baho berish bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Biroq, bizning lingvistik tolerantlik haqidagi tushunchamiz shuni ko‘rsatadiki, bayonet ob‘ektini baholashdan qat’i nazar, matnlarda uning namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin. Bu bizning qarashimizdagи lingvistik tolerantlik har bir so‘zlovchi o‘z nutq faoliyatida doimiy ravishda amal qilishi kerak bo‘lgan me’yorlar to‘plami ekanligi bilan asoslanadi. Noverbal darajada lingvistik tolerantlik tinglovchi tomonidan haqoratlari deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan imoshoralar, harakatlar va noverbal muloqotning boshqa birliklaridan voz kechish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, G‘arb madaniyatlarida tinglovching xabarni tushungangligini ko‘rsatadigan “yaxshi” imo-ishorasidan foydalanish (ko‘tarilgan qo‘l va bosh barmog‘i “o” harfi shaklida birlashtirilgan) yunon va turk etnik guruhlari vakillari bilan muloqot qilishda tavsiya etilmaydi.

Bu o‘z navbatida ularning madaniyatida kuchli ifodalangan haqorat ma’nosiga ega [12]. Umuman olganda, bizning fikrimizcha, lingvistik tolerantlik fenomeni “madaniy kompetensiya” fenomeni ya’ni boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyati bilan juda ko‘p umumiyl xususiyatlarga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Falsafiy tadqiqotlar kontekstida tolerantlik tushunchasining tarixiy evolyutsiyasining xususiyatlari, shuningdek uning antropologik tabiatining ta’siri ko‘rib chiqiladigan asosiy yo‘nalishlardir. Bu yerda tolerantlik har qanday dogmatizmning yetishmasligi haqida xabardorlik sifatida talqin etiladi.

“Tolerantlik” tushunchasi bir nechta talqinlarni o‘z ichiga olgan muhim polisemiyaga ega. Semantik maydonning lingvistik namoyon etilishi ushbu konsepsiyaning ikkita asosiy talqinini ajratishga imkon beradi: tolerantlik sabrlilik sifatida va tolerantlik begona shaxsning mavjud haq-huquqlarini (legitimligini) tan olish sifatida.

Boshqa birovning legitimligini tan olish kontekstida “ma’lum jihatlari bilan ustun, farq qiladigan yoki umumiy qabul qilingan fikrlarga rioya qilmaydigan odamlar bilan hamjamiyatni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash istagi va qobiliyati” deb tushuniladi [1], shuningdek, “boshqalarning o‘zinikidan farq qiladigan fikrlarini qabul qilish” [2] deb ham talqin qilinadi, “tolerantlik” hodisasining semantikasi V.E.Budenkova, N.L.Novosadova, N.N.Fedotova, M.P.Mchedlov kabi olimlarning ilmiy ishlarida aks etganligini kuzatish mumkin.

M.L.Novosadovaning fikricha, “tolerantlik” tushunchasi faol va konstruktiv munosabatni nazarda tutuvchi xilma-xillikka qiziqish ifodasini qamrab oladi. Uning ta’kidlashicha, “tolerantlik” semantikasining muhim jihat barqarorlik va kuchdir. Boshqalarning fikriga tolerant bo‘lish kuchli shaxsning pozitsiyasini ifodalaydi, murosasizlik va ksenofobiya esa zaiflik belgilari bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi [3, 45]. Shuningdek, M.L.Novosadovaning fikriga ko‘ra, “tolerantlik” axloq qoidalariga zid bo‘lmagan boshqalarning qonuniy manfaatlarining legitimligini tan olish sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu boshqalarning tajribasiga ochiqlik, muloqotga tayyorlik va ma’lum bir kontekstda o‘z tajribasini kengaytirish istagini o‘z ichiga oladi [4, 27].

M.P.Mchedlov ham xuddi shunday fikr bildirib, tolerantlik xayriohlikni, hurmat orqali ifoda etiladigan muloqot va hamkorlikka tayyorlikni nazarda tutishini ta’kidlaydi [5, 72]. T.V.Volkovaga ko‘ra, tolerantlikni bevosita universallik, birlik va hamfikrlikka intilish sifatida qabul qilinadi. U buni jamiyatda rozilik va hamjihatlikni shakllantirishga yordam beradigan madaniy omil rolini o‘ynaydigan “tolerantlikning eng yuqori darajasi” deb belgilaydi [6, 57].

**Tahlil va natijalar.** Zamnaviy ilmiy adabiyotlarda “tolerantlik” “boshqa odamlarning fikri, e’tiqodi va xatti-harakatlariga sabrlilik”, shuningdek, “biror narsaga toqat qilish, biror narsaga bardosh berish qobiliyati” deb talqin qilinadi. Bu fikrni S.G.Ilyinskij, B.G.Kapustin, Yu.Shpis, I.V.Krugova, V.V.Solovyovlar kabi tadqiqotchilar qo‘llab quvvatlaydi.

Ushbu qarash vakillari tolerantlik va sabrlilik atamalari bir xil ma’noga ega ekanligiga ishoni shadi va uni “boshqa kishiga” faqatgina munosabatda bo‘lish usuli, shaxsiy hayotning xususiyatlari esa jiddiy ahamiyatga ega emas deb qabul qiladi” [9-10, 60]. Biroq, “tolerantlik” va “sabrlilik” tushunchalarini butunlay ekvivalent deb hisoblash kerakligi to‘g‘rimi?

S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedovalar tomonidan tuzilgan “Rus tilining izohli lug‘ati”ga ko‘ra, bag‘rikeng shaxs - bu boshqalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatlariga yovuzlik (dushmanlik) qilmasdan, sabr-toqat bilan munosabatda bo‘la oladigan shaxs deb keltiriladi. “Sabr” tushunchasi esa biror narsaga chidash qobiliyatini anglatishi keltirilgan [10]. “Tolerant” fe‘li kimningdir yoki biror narsaning mavjudligiga chidashga yoki istalmagan narsaning mavjudligiga ixtiyoriy ravishda ruxsat berishga tayyorlikni tavsiflaydi.

Ushbu tushunchalarni tolerantlik haqidagi zamnaviy munozaralar kontekstida, ularning o‘zaro ma’no o‘xshashligini hisobga olgan holda ajratib ko‘rsatishga arziydimi va bu zamnaviy jamiyatda bag‘rikenglik tushunchasiga qanday ta’sir qilishi mumkinligi haqida ko‘plab munozaralar paydo bo‘ladi.

Zamnaviy lug‘atlarda “sabrlilik” ko‘pincha biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish; o‘zini tiyish qobiliyati bilan bog‘liq. Bundan farqli o‘laroq, “sabr” ko‘pincha noqulaylik yoki yoqimsiz his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan narsaga toqat qilish yoki chidash uchun ichki sabr yoki ushlab turish doirasida faol qibiliyatni tasvirlaydi.

Sabr-toqatdan farqli o‘laroq, tolerantlik bag‘rikenglik tashqi tolerantlikni yoki ichki dissonans yoki norozilik mumkin bo‘lgan vaziyatda tinch-totuv yashashni saqlab qolish qobiliyatini anglatadi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, zamnaviy munozaralar sharoitida “tolerantlik” nafaqat boshqalarning fikrini qabul qilish, balki o‘z qarashlariga zid bo‘lsa ham, faol hurmat va mavjud farqlarni anglash kabi kengroq ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Shu tarzda tolerantlik turli xillikka hurmat va farqlarga ochiqlik asosiy rol o‘ynaydigan inklyuziv jamiyatga intilishni o‘z ichiga olishi mumkin. Shunday qilib, zamnaviy kontekstdagi tolerantlik oddiy “sabr” yoki “bag‘rikenglik” bilan emas, balki xilma-xillik va farqlarga nisbatan konstruktiv va ochiq munosabat bilan bog‘liq.

**Xulosa va takiflar.** Xulosa qilib aytganda, umumiyl semantik asos mavjudligiga qaramay, “tolerantlik” “sabr-toqat” va “bag‘rikenglik” atamalari ma’lum farqlarga ega. Bag‘rikenglik tushuncha sifatida tolerantlikni o‘z ichiga olmaydi, xuddi shu tarzda ham tolerantlik ham bag‘rikenglikni o‘z ichiga olmaydi. Tolerant bo‘lish o‘z e’tiqodiga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalari va harakatlarga oddiyigina chidash, o‘zboshimchilik bilan bo‘ladigan harakatlarga befarq bo‘lishni yoki atrofdagi barcha narsani loqaydlik bilan qabul qilishni anglatmaydi. Tolerantlik, aksincha, shaxsning ko‘p qirrali jamiyatga, uning xilma-xilligini hisobga olgan holda ijobjiy munosabatini ifodalaydi. Bu yovuz harakatlarni rad etish bilan birga atrofdagi ijtimoiy-madaniy muhitni konstruktiv va xayriox baholashda ifodalanadi.

## ADABIYOTLAR

1. Tolerantlik // Kolyer ensiklopediyasi URL: <http://www.slovopedia.com/>
2. Tolerantlik // Merriam Webster URL: <http://www.merriam-webster.com/>
3. Novosadova M.L. Zamnaviy jamiyatda tolerantlik qadriyatini falsafiy tushunish // Madaniyatshunoslik tahlili. - 2006. - №2(6).
4. Fedotova N.N. Tolerantlik mafkuraviy va instrumental qadriyat sifatida // Falsafiy fanlar. - 2004. - №4. - b. 5-27.
5. Mchedlov M.P. Tolerantlik muammolari // Falsafiy fanlar. - 2002. - №4. - b. 72.
6. Volkova T.V. Tolerantlikni jamiyatning ijtimoiy-madaniy integratsiya omili sifatida ijtimoiy-falsafiy tahlili: nomz. ... dis. fal. - Rostov n/D, 2006. - 57 B.
7. Katta ensiklopedik lug‘at // Slovopedia.com: Rus izohli lug‘atlari URL: <http://www.slovopedia.com/>
8. Ushakovning izohli lug‘ati // Slovopedia.com: Rus izohli lug‘atlari URL: <http://www.slovopedia.com/>
9. Duden Deutsches Universalwörterbuch, 2023. Berlin: Duden, b: 60-65.
10. Ojegov S.I., Shvedova N.Yu. Rus tilining izohli lug‘ati. - 4 nashr. Rossiya Fanlar akademiyasi. V. V. Vinogradov nomidagi rus tili instituti.

11. Yujakova Yu.V. Mafkuraviy yo‘naltirilgan ommaviy axborot nutqida tolerantlik: nomz. ... dis. fil. - Chelyabinsk, 2007.
12. Innocent gestures that mean rude things abroad. URL: <http://travel.ninemsn.com.au/world/rudegestures/835248/innocent-gestures-that-mean-rude-things-abroad>